



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 1-iyul

VII-9-63-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

**Ishsizlikni kamaytirish va bandlikni ta’minalash, aholini himoyasini kuchaytirish
va nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash hamda tuman
Kengashining 2025-yil 6-fevraldaggi VII-4-12-11-163-K/25-sonli qarori ijrosi
yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvar kungi PQ-12-sonli qaroriga asosan hududlarda aholi bandligini ta’minalash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida Kengashlarida muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy manzilli dasturlarni qabul qilinishini ta’minalishi belgilab berildi.

Farg‘ona tumanida 2025-yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlari shakllantirilib, tuman bo‘yicha 30 207 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

2025-yilda barcha yo‘nalishlarda 30 207 ta, shundan 23 088 tasi doimiy, 6 376 tasi mavsumiy hamda 743 tasi vaqtinchalik hisobiga yaratilishi belgilangan bo‘lib, joriy yilning yanvar-may oylarida 3 865 nafar aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minalash rejasiga belgilangan bo‘lib, amalda “Yangi ish.mehnat.uz” elektron platformasiga 4 826 nafar aholi bandligi ta’minalanganligi (124,9 foiz) qayd etildi.

Jumladan:

Investitsiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga yillik reja 5 041 ta hududiy investitsiya loyihalarini ishga tushirilishi hisobiga yaratilishi belgilangan bo‘lib, yanvar-fevral oyi rejasiga 33 ta, amalda 89 ta 269,7 foizni;

Tijorat banklari tomonidan aholini doimiy ish o‘rinlariga ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb qilish hisobiga yillik reja 17 100 ta yaratilishi belgilangan bo‘lib, yanvar-may oyi rejasiga 2 942 ta, amalda 3 956 ta 134,5 foizni;

Shundan:

- Aholini doimiy ishga joylashtirish hisobiga 1043 ta, amalda 1311 ta 125,7 foizni;
- Aholini tadbirkorlikka jalb qilish hisobiga 1899 ta, amalda 2645 ta 139,3 foizni;

Qishloq xo‘jaligi sohasida yillik reja 7 005 ta shundan, 629 ta doimiy, 6 376 ta mavsumiy ish o‘rinlari yaratiladi deb belgilangan bo‘lib, 5 oylik reja 716 ta, amalda 671 ta ta 93,7 foizni.

Qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish hisobiga jami yillik reja 1 061 ta yaratilishi belgilangan bo‘lib, yanvar-fevral oyi rejasi 174 ta, amalda 110 ta 63,2 foizni tashkil etadi.

Shuningdek joriy yilning 2 oyi davomi quyidagi yo‘nalishlarda ham fuqarolar bandligi ta’minlandi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida jami 996 nafar fuqarolar ishga joylashtirildi, shundan 793 nafari ayollar, 203 nafari yoshlarni tashkil etadi.

Qayta kasbga o‘qitish ishlari bo‘yicha jami 566 nafar fuqarolar qayta kasbga o‘qitildi, shundan 361 nafari ayollar, 141 nafari yoshlarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvar kungi “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-sonli Qarori hamda Farg‘ona tumani hokimligining 2025-yilda ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturi hamda tarmoqlar kesimida va oyma-oy maqsadli ko‘rsatkichlarni tasdiqlash borasidagi takiflarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Ishsizlikni kamaytirish va bandlikni ta’minlash, aholini himoyasini kuchaytirish va nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda tuman Kengashining 2025-yil 6-fevraldagи VII-4-12-11-163-K/25-sonli qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i X.Mo‘minovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (Abduraximov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Mo‘minov) hamda hududdagi tegishli tashkilotlarining rahbarlari bilan birgalikda:

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo‘yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda uni rivojlantirishga turki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash;

aholini kambag‘allikdan chiqarish, kam ta’minlangan va himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlashga oid yoshlar va ayollarni kasbga, tadbirkorlikka jalb qilish hamda aholini bandligini ta’minlash bo‘yicha, shuningdek, mahallalar qiyofasini yangilash infratuzilma ob‘ektlarini barpo qilish, o‘z mehnat vazifasini bajarishda sustkashlikka yo‘l qo‘yib aholi murojaatlarini joyida qonuniy hal qilish choralarini ko‘rmagan va buning oqibatida aholining takroriy murojaatlari oshishiga sabab bo‘lgan hokim yordamchilariga nisbatan qonunda belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari ko‘rilsin.

3. Farg‘ona tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi X.Mo‘minovga tuman Soliq inspeksiyasi bilan birgalikda:

xizmatlar sohasidagi yuridik shaxslar tomonidan yaratilayotgan ish o‘rinlarini soliq organi ma’lumotlari bazasida qayd etib borilishini tashkil etish;

migratsiya bo'yicha chet elda ishslash istagini bildirgan fuqarolarni zamonaviy kasblar hamda chet tillarga o'qitish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etish;

mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlari yetakchilari va xotin-qizlar faollari ishtirokida xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasiga oid, "Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga berilayotgan imtiyozlar to'g'risida grafik asosida seminar uchrashuvlar o'tkazib borish;

mahallalardagi "Yettilik" bilan hamkorlikda fuqarolarga xorijda munosib ish topishida ko'maklashish va tashkillashtirilgan tartibda ishga yuborish, fuqarolarni kasbhunar va xorijiy tillarga o'qitish choralarini ko'rish;

tumandagi yirik tashkilotlardagi bo'sh ish o'rinlariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlasinlar.

4. Hokim yordamchilari o'ziga biriktirilgan mahallalarda dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib borishlari lozimligi hamda kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi bo'yicha tijorat banklari bilan birgalikda tegishli choralarini ko'rishlari lozimligi belgilab qo'yilsin.

5. Farg'ona tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikga ko'maklashish bo'limi rahbari X.Mo'minovga:

- 2025-yil uchun tasdiqlangan ish o'rinlar yaratish dasturini to'liq ijrosini tashkil qilish maqsadida har chorak yakuni bo'yicha ish o'rinlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tahlil qilib, belgilangan rejani bajarish choralarini ko'rish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29 son Farmoniga asosan har bir MFYlarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, ularga yuklatilgan vazifalarni masuliyat bilan bajarishlarini ta'minlash va ijro intizomiga amal qilmagan hokim yordamchilariga nisbatan qonunda belgilangan ta'sir choralarini qo'llab, bu haqida Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashiga axborot berish;

- hokim yordamchilari tomonidan:

a) har bir oila uchun ishlab chiqilgan individual reja asosida ular bilan manzilli ishslash, ya'ni biriktirilgan mas'ul tashkilot rahbarlari orqali ularni mehnatga layoqatli oila a'zolarini doimiy ishga joylash, o'zini band qilish, imtiyozli kredit ajratish, kasbhunarga o'qitish, ijara asosida yer ajratish hamda o'z xonardonida bo'sh turgan ekin maydonlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish ishlarini yanada mas'uliyat bilan davom ettirish;

b) mahallada muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlik su'bektlari bilan faoliyatini olib borish;

v) ajratilgan resurslardan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish;

- 2025-yilning 6 oyi va yil yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashiga hisobot berish vazifasi yuklatilsin.

6. Xalq deputatlari Farg'ona tuman Kengashi deputatlari yangi ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini tarmoqlar kesimida nazorat qilib borishga mas'ul xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini, ularning haqqoniyligi va

barqarorligini tahlil qilib, natijalarini doimiy komissiyalarda muhokama qilib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rribbosari (Abduraximov), qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashning barcha doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV
ILXOMJON
AKBARALIYEVICH